# SHARTNOMA

## (Mebel jihozlari xarid qilishto`g`risida)

15«12»2022 yil. **38-4-223-BKM/2022-son**

Ushbu shartnomaga asosan bir tomondan **"Zamin tarovati"** ma'suliyati cheklangan jamiyati nizomiga asosan faoliyat yurituvchi MChJ rahbari **Shaymanov To`lqin Maxmayusupovich** (keyingi oʻrinlarda «Sotuvchi» deb yuritiladi) hamda ikkinchi tomondan Koʻkdala tumani Aholi bandligiga ko`maklashish markazi nizomiga asosan faoliyat yurituvchi markaz direktori Xujamqulov Sharof Qurg`onboyevich (keyingi oʻrinlarda «Sotib oluvchi» deb yuritiladi) ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzib imzolandi

### 1. ShARTNOMANING PREDMETI.

1.1. «Sotuvchi» oʻzi ishlab chiqargan yoxud sotib oladigan tovarlarni «Sotib oluvchiga»ga shartnomada koʻrsatilgan muddatda etkazib berishni, «Sotib oluvchiga» esa tovarlarni qabul qilishni va haqini oʻz vaqtida toʻlash majburiyatini oʻz zimmasiga oladi

1.2 Ushbu shartnoma bo`yicha «Sotuvchi» «Sotib oluvchi»ni quyidagi tovarlar bilan ta'minlaydi

| № | Tovar (maxsulotlar) nomi | O'lchov birligi | Soni | Narxi | Bahosi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Kreslo | donat | 2 | 2 000 000 | 4 000 000 |
| 2 | Stul na metallicheskom | dona | 20 | 470 000 | 9 400 000 |
| 3 | Stol 2 tumbali | dona | 10 | 180 000 | 1 800 000 |
| 4 | Javon | dona | 4 | 1 400 000 | 5 600 000 |
| 5 | Seyf | dona | 2 | 4 500 000 | 9 000 000 |
| 6 | Kabenet jixozi (stol stul) | dona | 2 | 6 700 000 | 13 400 000 |
| 7 | Pristavka | dona | 2 | 1 400 000 | 2 800 000 |
| 8 | Shkaf | dona | 9 | 1 700 000 | 15 300 000 |
| | Jami: | | x | x | **61 300 000** |

1.4 Shartnomaning umumiy qiymati **61 300 000.00 (oltmish bir million uch yuz )** soʻmni tashkil qiladi

### 2. HISOBLASHISH TARTIBI.

2.1. Ushbu shartnoma boʻyicha toʻlovlar shartnomaning umumiy qiymatini 30 (oʻttiz) foizi ya'ni 18 390 000.00 (oʻn sakkiz million uch yuz to`qson ming) soʻmini shartnoma belgilangan tartibda g`aznachilik bo`limidan ro`yxatdan o`tkazilgan kundan boshlab 5 ish kunida qolgan 70 (etmish) foiz ya'ni 42 910 000.00 (qirq ikki million to`qqiz yuz o`n ming ) soʻmini tovar toʻliq yetkazilib berilib, buyurtmachi tomonidan topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan qabul qilinganidan keyin hisob fakturaga asosan toʻlab beriladi.

2.2. Tulov shakli: Pul koʻchirish yuli bilan amalga oshiriladi.

### 3. TARAFLARNING MAJBURIYaTLARI.

3.1. Sotuvchining majburiyatlari:

3.1.1. Tovar (mahsulot)ni shartnoma talablariga javob beradigan holatda Sotib oluvchiga 30 % miqdorida oldindan boʻnak oʻtkazilgan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida yetkazib berish.

3.1.2. Tovar (mahsulot)larning sifati ushbu guruhi uchun amaldagi standartlarga muvofiq kelishi kerak.

3.1.3. Sotuvchi toʻplamda yaroksiz, sifati lozim darajada boʻlmagan tovarlar (maxsulot) mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 3 kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot)ni

sifatlisiga almashtirish yoki ushbu shartnomaning bandlariga muvofiq sifati lozim darajada bo'lmagan tovarning pulini qaytarib berish.

3.1.4. Sotuvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikka muvofiq tovar (mahsulot)ga bo'lgan kafolat muddatlarini taqdim etish.

3.2. Sotib oluvchining majburiyatlari:

3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovarni miqdori, sifati va butlanishi bo'yicha qabul qilib oladi.

3.2.2. Sifati lozim darajada bo'lmagan tovar keltirilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 kun ichida sotuvchini xabardor qiladi.

3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini to'lash.

## 4.TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

4.1. tovar yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. sotuvchi yetkazib berilgan tovar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi tovarlarni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.3. sotuvchi but bo'lmagan tovar yetkazib bergan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi): tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart;

4.4. sotuvchi tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli hamda yetishmayotgan tovarlar qismlar qiymatini qo'shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

4.5. «sotib oluvchi» yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.6. Penya, jarima to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni shartnomani asosaiy shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

## 5.KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

5.1. Tomonlar:

-Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan

cheklanmay) pora berish yoki berishni va`da qilish, ta`magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo`lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma`lum qiladilar.

5.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 6.FORS-MAJOR.

6.1 Tomonlar shartnoma shartlarini bajarishlari mobaynida ularning hoxish va yerki-irodasiga bog'liq bo'lmagan kuchlar to'sqinlik qilsa, jumladan: tabiiy ofatlar, zilzila, suv toshqini, urush holati e'lon qilinsa, amaldagi qonunchilikning o'zgarishi kabi holatlarda fors-major xolati e'lon qilinadi. Qaysi tomon uchun fors-major holati sodir bo'lsa, ushbu xolat haqida ikkinchi tomonni yozma ravishda ogoxlantirishi shart. Fors-major xolatlari 3 oy yoki undan ortiq davom etsa tomonlar shartnoma shartlarini bajarishdan qisman yoki to'liq ozod etiladilar

## 7.BOSHQA SHARTLAR.

7.1 Mazkur shartnoma O`zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofik tegishli tartibda G'aznachilik bo'limlarida ro`yxatdan o`tkazilgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo`yicha o'z majburiyatlarini to`li` bajarishi uchun asos xisoblanib 2022-yilning 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi.

7.2 Moddalarni ko'rsatuvchi so'z boshi shartnoma matnini ishlatishda qulaylik yaratish uchun qo'yilgan va bular shartnomani boshqacha talqin qilishga asos bo'lmaydi.

7.3 Ushbu shartnoma taraflarning barcha shartlarini aks etilgan.

Sifat, tovar (maxsulot)larning ushbu guruhi uchun amaldagi standartlarga muvofiq kelishi kerak.

## 8.SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

8.1. shartnomaga taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinadi.

8.2. Shartnoma shartlarini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnoma shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

8.3. Taraflardan birining talabi bilan shartnoma iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

## 9.SHARTNOMA BO'YICHA KELISHMOVCHILIKLARNI HAL ETISH TARTIBI.

9.1Tomonlarning kelishuvi bilan hal kilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli tuman-shahar, viloyat Iqtisodiy sudi orqali sud tartibida hal qilinadi

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI.

| Sotuvchi: | Sotib oluvchi |
|---|---|
| Tashkilot nomi: «Zamin tarovati» MChJ<br>Manzili: Qashqdaryo viloyati, Chiroqchi shaxri, Choshtepa MFY 4/36<br>Bank nomi: "Mikrokreditbank" Chiroqchi filiali<br>H/r 20208000104603873001<br>STIR: 300177737, MFO 00175<br>Telefon +99899 660 52 00<br><br>Rahbar ________ T.M.Shaymanov | Ko`kdala tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi<br>Ko`kdala tumani Umar Xayyom ko`chasi 77-uy<br>Bank nomi: Toshkent sh., Qishloq-qurilish Bank<br>sh.h 20022186010240704123123700l<br>MFO: 01037, STIR 309577145<br>telefon+998990212625<br>G'aznachilik bo'linmasi<br>Moliya Vazirligi G'aznachiligi<br>G'azna x\r: 23402000300100001010<br>Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shaxar bosh boshqarmasi XKKM.<br>MFO 00014, STIRI 201 122 919 |

"ZAMIN TAROVATI" MAS'ULYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI CHIROQCHI TUMANI

| | | |
|---|---|---|
| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | SHAROF XUJAMQULOV QURG'ONBOYEVICH |
| | Imzolangan sana | 15.12.2022 12:55 |
| | Hujjat kodi | **TN8075047835** |
| | Hulosa kodi | **MZ7156805272** |

-sonli shartnomaga
ILOVA

**Korrupsiyaga qarshi qoidalarining**
**ASOSIY SHARTLARI**

1. Tomonlar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya’ni Ko`kdala tumani Aholi bandligiga ko`maklashish markazi xodimi o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va’da berish;

tovlamachilik qilish;

pora sifatida pul to‘lash;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo‘yicha bir Tomon Ko`kdala tumani Aholi bandligiga ko`maklashish markazi xodimining axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan ishonch telefoni;

Telegram-kanali (“@xxxxxxxxxx”);

Ko`kdala tumani Aholi bandligiga ko`maklashish markazi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

**TOMONLAR:**

| **Sotuvchi:** | **Sotib oluvchi:** |
| --- | --- |
| **"Zamin tarovati" MChJ** | **Ko‘kdala tumani Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi.** |
| **Raxbar T.M.Shaymanov** | **Raxbar: Sh.Xujamqulov** |

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI CHIROQCHI TUMANI "ZAMIN TAROVATI" MAS'ULYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI KO‘KDALA TUMANI AHOLI BANDLIGIGA KO‘MAKLASHISH MARKAZI

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

MZ7156805272

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Sotuvchi "Zamin tarovati" MChJ tomonidan umumiy qiymati 61 300 000.00 (oltmish bir million uch yuz ming) so`mlik mebel jihozlari yetkazib berish to`g`risida shartnoma**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Ko'kdala tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan 15.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Kukdala tuman yuridik markazi markaz rahbari:**

**SH.I.USMANOV**

15.12.2022

**TANLOV BAYONI**

**Tasdiqlayman**

Ko`kdala tumani Aholi bandligiga

ko`maklashish markazi direktori:

______________Sh.Xujamqulov

15.12.2022 № 203251/1 Ko`kdala tumani

Aholi bandligiga ko`maklashish markazi mebil jihozlarini sotib olish uchun shartnoma tuzib mebil jihozlarini sotib olish uchun komissiya yig`lishi

**Tanlov Konkurs bayoni**

Komissiya raisi Ko`kdala tumani Aholi bandligiga ko`maklashish markazi direktori: Sh.Xujamqulov

**Komissiya asolari:**

Direktor o'rinbosari: J.Ravshanov

Ishsizlarni xisobga olish boshligi S.Xoliqov

Ishsizlarni xisobga olish mutaxasisi S.Jurayev

Ishsizlarni xisobga olish shu'basi E.Soriyev

Tashqi mexnat megratsiyasi inspektorlari A.Aliqulov

**Kun tartibida kuriladigan masala**.

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan mebil jihozlarini harid qilish uchun mablag' ajratish to'g'risida. Komissiya raisi Sh.Xujamkulov so'zga chiqib mebil jihozlarini harid qilish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan ajratilgan mablag'lar doirasida harid qilish uchun 78 908 000 (Etmish sakkiz million tuqqiz yuz sakkiz ming) so'm mebil jihozlarini harid qilish uchun tovar xom ashyo birjasiga (09.12.2022 yildagi № 203251-sonli lotga asosan) e'lon qilingan va tanlov asosida 2 (Ikki)ta pudratchi o'z takliflari bilan qatnashdi va eng yuqori **bal** bilan, va takliflar asosida narxlarni urganib chiqib, pudratchi tashkilotlarni tanlov asosida kurib chiqish kerak ekanligini bildirdi. Mebil jihozlarini harid qilish uchun 2 ta pudratchi tashkilotlardan shu takliflar ichida yaxshi va biz uchun ma'qul bo'lgan taklifni tanlashimiz kerak. Tanlov asosida pudratchi tashkilotlar tomonidan taklif qilingan narxlarni ko'ydagi jadval asosida kurishimiz mumkin.

| № | Xizmat nomi | Ulchov birligi | Pudratchi tashkilotlarning nomi | |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Mebil jihozlarini harid qilish uchun | Dona | SP MEBEL ASL MARJON | "ZaminTarovati" MChJ |
| | | | 63 200 000 | 61 300 000 |
| | | | | |

Komissiya a`zolari xizmat takliflarni kurib chiqib, Chiroqchi tumanidagi "Zamin Tarovati" MChJ bergan taklifda kursatilgan taklifini arzonligini, va eng yuqori **bal** olganlini barcha turdagi xujjatlar mavjudligini va yetkazib berish imkoniyatlarini kupligini hisobga olgan holda quydagicha

Ko'kdala tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazining 2022 yil 09 dekabr kundagi №203251/1-sonli tanlov bayonnomasi orqali LOT 203251 sonli raqami bilan ikki ish kuni muddatga Tanlov konkurus bayonnomasi 2022 yil 09 dekabr kuni elon joylashtirildi. Ushbu muddat ichida xech qanaqa tovar (ish xizmat) yetkazib beruvchilar tomonidan boshqa hech qanday takliflar va xech qanaqa murojaatlar xamda etirozlar kelmaganligi sababli yuqorida utkazilgan bayonnomadagi tanlov bayonnoma g'olib "Zamin Tarovati" MChJ bilan shartnoma qilishga.

QAROR QILADI

1. "Zamin Tarovati" MChJ tanlov g'olibi deb tan olinsin.
2. Shartnomaga imzo quyib tastiqlash markaz direktori Sh.Xujamkulovga yuklatilsin.
3. Ushbu mebil jixozlarini harid qilish uchun pul utkazishlik bosh hisobchi J.Ruzimurodovga yuklatilsin.
4. Ushbu mebil jixozlarini qabul qilib olishlik xujalik mudiri S.Jurayevga topshirilsin.
5. Ushbu bayonnoma qarorini bajarilishini nazorat qilishlikni o'z zimmamda qoldiraman.

**Erkin savdoda davlat xaridlarini amalga oshirish uchun baholash Komissiyasining tarkibi**

Komissiya raisi Ko`kdala tumani Aholi bandligiga ko`maklashish markazi direktori: Sh.Xujamqulov

**Komissiya asolari:**

Direktor o'rinbosari: J.Ravshanov

Ishsizlarni xisobga olish boshligi S.Xoliqov

Ishsizlarni xisobga olish mutaxasisi S.Jurayev

Ishsizlarni xisobga olish shu'basi E.Soriyev

Tashqi mexnat megratsiyasi inspektorlari A.Aliqulov

QASHQADARYO VILOYATI
CHIROQCHI TUMANI XOKIMLIGI

*Юридик шахсни давлат руйхатидан утказиш тугрисида*

# ГУВОХНОМА

Реестрдаги тартиб раками № 234

2010 й 9 июн

Мазкур гувохнома юридик шахс

"Замин-Таровати"

масъулияти чекланган жамиятига

(юридик шахс булган дехкон хужаликлари, фермер хужаликлари учун ажратилган ер участкаси ва унинг майдони курсатилади) берилган.

| | | |
|---|---|---|
| Ташкилий хукукий шакли | ТХШ | 1152 |
| Мулкчилик шакли | МШ | 142 |
| Почта манзили | МХОБТ | 1710242501 |
| Юридик шахснинг манзили | КТУТ | 21640229 |
| Тармок коди | ХХТУТ | 71150 |
| Солик туловчининг идентификация раками | СТИР | 300177737 |

Кушимча маълумотлар: ____

М.У.

*Ваколатли орган рахбари:* ____ *Ш.Усанов*

---

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТ Чирокчи ТУМАН (ШАҲАР) ҲОКИМЛИГИ

# ЛИЦЕНЗИЯ

УСN 1476

Мазкур лицензия билан „Замин- Таровати" масъулияти чекланган жамияти га

УЛГУРЖИ САВДО ФАОЛИЯТИ ни амалга оширишга рухсат берилади.

Лицензия эгасининг жойлашган жойи (почта манзили): Чирокчи шахри Чештепа кучаси

Солиқ тўловчи-лицензия эгасининг идентификация рақами 300177737

Лицензия берилган сана 23.06.2010

Лицензиянинг амал қилиш муддати чекланмаган.

Реестр бўйича тартиб рақами № 105

Ваколатли шахс: Туман хокими

Т. Равшанов (Ф.И.О.) ____ (имзо)

Изох: Лицензиянинг нотариус томонидан тасдиқланмаган нусхаси хақиқий ҳисобланмайди